

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ABDURAHMON GO‘ZALNING ORIFONA TAHLILI XUSUSIDA

Dilshoda Haqqul

UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Abdurahmon Go‘zal turkiy adabiyotni tahlil va talqin etishda o‘ziga xos uslubga ega olimlardan. Maqolada uning irfoniy tahlillaridan bahs yuritiladi. Shuningdek, Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf she‘riyatidagi o‘rni olim tahlillari orqali ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: hikmat, din, islom, tasavvuf, tariqat, ma‘rifat, shariat, tahlil, talqin.

Abstract: Abdurahman Guzal is one of the scholars with a unique approach to the analysis and interpretation of Turkish literature. This article discusses his mystical analyses. Additionally, the article highlights the place of Ahmad Yasawi's wisdom in Sufi poetry through the analysis of the scholar.

Keywords: wisdom, religion, Islam, Sufism, tariqa, gnosis, sharia, analysis, interpretation.

Tasavvuf adabiyotida bosh maqsadlardan biri islom dinining mazmun mohiyatini targ‘ib qilishdir. Shu bois ajdodlarimiz tasavvufga alohida e‘tibor qaratishgan. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul tasavvuf haqida: “Tasavvuf, eng avvalo, insonning o‘z mohiyatini teran idrok qilish va bilish yo‘lidagi og‘ir, qiynoqli intilishlarini ifodalaganidir. Odam farzandining zohiriy bahs-u munozaralari, moddiy manfaat yo‘lidagi har turli tortishuv-talashuvlari, aslida, uning botinidan boshlanadi.tasavvuf va tariqatlar, tasavvuf maslagi zaminida shakllangan ma‘naviy hayot bizning madaniyat tariximizda muhim mavqega ega bo‘lgan. Biz nafaqat ilm-fan, adabiyot, san‘at va musiqamizni, hatto tilimiz taraqqiyotini ham tasavvufdan butunlay ajratib tasavvur eta olmaymiz. Urf-odat, milliy qadriyat va muomala-munosabatlarimizning ildiziga yetib bormoq uchun ham tasavvufga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi”¹. Darhaqiqat, mumtoz adabiyotning g‘oya va badiiyatini tasavvufiy bilimlarsiz ochib berish mumkin emas. Ma‘rifiy istilohlar, obraz, ramzlarni izohlashda ham tasavvuf qo‘llanmalari bosh manba sanaladi. Adabiyotshunoslikdagi bu talabni Abdurahmon Go‘zal chuqur anglagan va uning adabiy qarashlarining poydevorini diniy bilimlar va tasavvufiy ma‘rifat tashkil etadi.

Tasavvufshunos va adabiyotshunos deya e‘tirof etilgan Abdurahmon Go‘zal tasavvuf adabiyoti namunalarini tahlil va talqin etish bilangina cheklanmadi. Balki bu muhtasham adabiyotning nazariy asoslarini yaratdi. Ushbu adabiyotning mazmun-mohiyati, shakllanish omillari, taraqqiyot takomili, obraz, ramz, istilohlarining izohlari xususida darslik, qo‘llanmalar yaratdi. Jumladan, Rizo Tavfiq Bo‘lukbashi bu adabiyotga “Takka adabiyoti” deb nom berganligi va

¹ Ibrohim Haqqul haqiqati. Toshkent. 2023

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

xalq adabiyotidan farqli ekanligiga e’tibor qaratganligi haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, olim tasavvuf adabiyotini xalq adabiyoti va mumtoz adabiyot orasidagi ko’prik deb, tasavvuf adabiyotini bu ikki adabiyotning uzoqlashishiga to’sqinlik qiluvchi original adabiyot deya baholaydi va tasavvuf adabiyotini uch davrga ajratadi:

1. Muhammad alayhissalom davri.
2. Tobeinlar davri.
3. Ilk so’fiylar davri”.

Tasavvuf adabiyotini davrlashtirida olimning o’ziga xos qarashlari mavjudligi ko’rinib turibdi. Va bu tasnifning to’g’ri va aniqligini tarixiy haqiqatlar tasdiqlaydi. Zero, tasavvuf bir hayot tarzi sifatida Rasululloh s.a.v. davrlarida mavjud edi. Sahobalarning munosib davomchilari o’laroq tobeinlar ham ahli suffaning hayot tarzini o’rnak sifatida qabul qildilar. Keyinalik esa salaflarga ergashib, islomiy hayotni tarjih etgan so’fiylar paydo bo’ldi. Olim tasavvufdagi bu inja bog’, uzilmas bir rishtani ko’ra olgan va tasniflashda haqqaniylik bo’lgan. Abdurahmon Go’zal XIII asr adabiyotini tasavvuf asri sifatida e’tirof etadi. Bu davrda islom dini keng yoyilib, Buxoro, Samarqand, Farg’ona kabi shaharlarda tasavvuf adabiyotining yirik vakillari yetishib chiqqanligi va bu shaharlar nufuzli tasavvuf markazlari sifatida e’tirof etilganligi alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, olim o’z tadqiqotida Roziy, Farobiy, Ibn Sino, Qushayriy, G’azzoliy kabi shu zaminda yetishib chiqqan buyuk olimlarning nomlarini keltirib o’tadi. Xususan, Ahmad Yassaviyni tasavvuf olamida alohida o’ringa ega, keng ufq ochgan siymo sifatida e’tirof etadi: “Ahmad Yassaviy, Mansur ota, xorazmlik Sayid Ota, Sulaymon Hakim Ota Luqmon Parranda, Mavlono Hoji Bektosh Valiylar kabi xalifalari va minglarcha muridlarni yetishtirib, Anado’lu va Bolqonlarga yubordilar. Yassaviy tariqati dastlab Turkistonda, so’ngra boshqa mintaqalarda tez fursatda keng yoyildi. O’rta Osiyo Ozarbayjon, Onado’li va Volga bo’yida yashovchi turkiy xalqlarlar orasida keng yoyilishiga sababchi bo’lgan tasavvufshunos Hoja Ahmad Yassaviydir”². Olim Yassaviyni turkiy xalqlar orasida ilk so’fiy shoir deb e’tirof etadi. Olimning ijodkor va manba tanlashdagi mahorati alohida tahsinga loyiq. Chunki tasavvuf adabiyotida yangi yo’nalishlarga asos solgan tariqat sohiblarini tanlab, ularning shaxsiyati va ijodini mushtaraklikda o’rgandi. Masalan, tasavvuf adabiyotining ikki zabardast vakili Muhiddin Arabiy va Jaloliddin Rumiya ham alohida to’xtalib o’tadi. Bundan tashqari, Yunus

² Prof.Dr.Abdurrahman Güzel.Prof.Dr.Ali Torun.Türk halk edebiyatı El kitabı. AcÇağ. – B.459.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Emro, Sulton Valad, Oshiq Poshsho, Qayg‘usiz Abdol, Said Emrolar uning asosiy tadqiqot ob’ektlaridir.

Abdurahmon Go‘zal mutasavvif shoirlarning hikmatlar yozishdan birlamchi maqsadi islom aqidalarini yetkazishda badiiyat sehridan unumli foydalanish ekanligini urg‘ulaydi. Shu bilan birga har bir ijodkorning maslagi va uni ifodalashdagi o‘ziga xosliklarga e’tibor qaratdi. Ahmad Yassaviy hayoti, tariqati va asarlarini chuqur o‘rgangan olimning fikricha, boshqa mutasavviflarda ochiq ko‘zga tashlangan bu dunyodan shikoyat holi Yassaviyda uchramaydi. Insonning vazifasi o‘zining Allohga qullik burchini ado aylab diydorga vosil bo‘lmoqligi kabi fikrlarni Yassaviy baytlarining tahlili orqali keng yoritiladi. Yassaviyga ko‘ra insonni Alloh yo‘lidan chalg‘ituvchi nafs ekanligini, nafs tog‘idan oshib, nafs tuzoqlaridan qutulmoq lozimligiga diqqatini qaratadi. Xususan, olim Yassaviy she’riyatida shariat va tariqatning mushtarakligini, undagi unsurlarning birlashganligini, ayrim baytlarida tasavvufiy nuqtayi nazar ustunlik qilishini e’tirof etadi: “Haqiqiy ishq va undan ko‘zlangan maqsad diydor ko‘rishdir. Haq oshig‘i zuhd va taqvo ahliga o‘xshab jannat ilinjida yashamaydi. Chinakam oshiq, bir daqiqa bo‘lsin, Haqdan g‘ofil qolmaydi. Chunki g‘ofillik bilan oshiqlikning hech bir bog‘liqligi yo‘q. Zero, oshiqlik kamoliga erishmasdan Haq diydorini mushohada etish imkonsiz. Inson ishq yo‘lida xuddi Layli va Majnun, Farhod-u Shirin, Vomiq-u Uzro yanglig‘ sodiq bo‘lmog‘i shart:

Qul Xoja Ahmad zohid bo‘lma, oshiq bo‘lg‘il,
Bu yo‘llarda bebok yurma, sodiq bo‘lg‘il,
Layli Majnun, Farhod Shirin, Vomiq bo‘lg‘il,
Oshiq bo‘lmas Haq diydorin ko‘rsa bo‘lmas”³.

Abdurahmon Go‘zal Yassaviyning shariat arbobi sifatida e’tirof etadi. Shariatning mohiyati, shakli va hazrati payg‘ambarning sunnatiga mutlaq zaylda tobe ekanligini ta’kidlaydi va shariat va tariqat xususida to‘xtalib, Yassaviyning shariat va tariqat xususida quyidagi ikki fikrlariga e’tibor qaratadi:

1. Shariatga tayanmagan tariqat botildir.
2. Imonning po‘sti shariat bo‘lsa, ichi va mag‘zi tariqatdir.

Olim hamisha ilmiy va badiiy asarlarni uyg‘unlikda o‘rgandi. Xususan Ahmad Yassaviy hikmatlari hamda “Faqrnoma” asarini mushtarak holda tadqiq etadi. Shariat va tariqat borasida ham xuddi shunday. Hikmatlar qatidagi irfoniy ifodalarni “Faqrnoma”dagi nazariy fikrlar bilan tasdiqlaydi: “Faqrnoma”da tavsiflangan to‘rt

³ Abdurahmon Go‘zal. Yassaviy. “Faqrnomasi Toshkent” Navro ‘z” nashriyoti. 2014. – B.37.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

eshik qirq maqom tushunchasi to‘rt binoga qiyoslanadi. Uning ilk bosqichi shariat, ikkinchi bosqichi tariqat, uchinchi bosqichi ma’rifat va to‘rtinchi bosqichi haqiqat deya tasavvur qilinib, har bir bosqich o‘n xona: o‘n maqom, o‘n nur, o‘n yo‘l, o‘n makondan iborat”.

Olim tadqiqotlarida har bir fikr-mulohazaning keng qamrovli va batafsilligini ko‘rish mumkin. Unda har bir istilohning ma’nosi, uning qaysi adabiyotlarda qay tarzda ifodalanishi sinchiklab o‘rganilgan. Olim bularga adabiyotshunos sifatida yondashadi. Shariatdagi o‘n maqomda dastlab shariatning lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib, “zohiriy hukmlar, fiqh qoidalari, huquqiy qurollar, inson vujudi, ruhi, payg‘ambar vositachiligida Alloh tarafidan yuborilgan ilohiy hukmlar, qonunlar” deya izohlanishini ta’kidlaydi. Olim shariatning istilohiy ma’nosini ko‘rsatib o‘tadi: “Shariatning istilohiy ma’nosi esa “Qur’on va hadislarining umumiy hukmlarini ichiga olgan qonunlarning ta’lim muassasalarida o‘qitilishi, ommani ilmi, yetuk, fikrchan bir jamoa holiga yetkazish uchun ularga ijtimoiy, tarixiy, iqtisodiy, tibbiy, diniy va huquqiy ilmlarni o‘rgatish”⁴. Shuningdek, olim tasavvufda ikkinchi vodiy tariqatning hollaridan bahs etadi. Tariqatni shariat qonun-qoida va hukmlarni amalda yashab, shariat doirasida kitob va sunnatga suyanishi asoslanadi. Tariqatnig robita, zikr, muroqaba singari usulu arkoni borligi hamda bu amallarni bajarishdagi o‘ziga xos talablar, solikning hol manzaralari tahlil etiladi. Mazkur amallarning huzur ila bajarilishi ishq va irfon tufaylidir. Olim esa, tasavvufiy hayotda Alloh va Rasuliga yurakdan to‘la bog‘lanish, ularning amr-farmoyishlariga haqiqiy ma’noda sadoqatli bo‘lish muhim ekanligini aytadi. qarashlarini badiiy matnga tayanga holda chuqur tahlil qiladi.

Shuningdek, olim shariat va tariqatdagi o‘n maqomni birma-bir sanab o‘tib, har biriga alohida to‘xtaladi. Abdurahmon Go‘zal ilohiyotchi-adabiyotshunos ekanligi har bir tahlil va talqinida yaqqol ko‘rinadi. U har qanday matnni ilmiy asoslarga tayangan holda sinchiklab o‘rgangach, tahlilga kirishadi. Abdurahmon Go‘zalning orifona tahlillari mumtoz adabiyot asrorlarini tushunishda qimmatli sanaladi. Bu kabi talqinlar o‘zbek adabiyotshunosligining ham yutug‘i sifatida qaralishi va olim tajribalarining o‘rganilishi muhimdir.

⁴ Abdurahmon Go‘zal.Yassaviy. “Faqrnomasi Toshkent”Navro ‘z” nashriyoti.2014. – B.37.